Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	



Buxgalteriya hisobining samaradorligini oshirish yo'llarida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar	987
Sattorov Mirjahon	
Особенности маркетинговых стратегий в условиях ограниченных ресурсов и узкой потребительской аудитории	991
Дебердиев Анвар	
DEbitorlik va kreditorlik qarzlarini auditini rejalashtirish masalalari.....	995
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li, Ibragimova Iroda Rashid qizi	
Инвестиционная программа узбекистана по привлечению иностранных инвестиций	1000
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Бекмуратов Шухрат Даулетмуратович	
Turistik mahsulotni shakllantirishda turistlar hayoti xavfsizligini ta'minlash.....	1005
Raxmonov Siyovush Turob o'g'li	
Uglerodsiz energiyaga o'tishda o'zbekistonning yashil strategiya yo'l xaritasining integratsiyasi va ta'siri.....	1011
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Цифровая устойчивость регионов: применение аналитики больших данных для оценки и управления экологическими рисками	1016
Маликов Шохрух Шокирович, Камалов Шухрат Камалович	
Разработка риск-ориентированной модели внутреннего контроля предприятия на этапе планирования налогов в условиях дистанционного налогового мониторинга	1024
Галеева Н.Н., Э.А.Халикова, Абдусаломова Гулчеҳра Мирзо кизи	
Анализ результатов инструментальных методов исследований у детей с врожденными пороками сердца	1029
Мухаммадиева Лола Атамуратовна	
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	1036
Uskenbaeva Dilnoza Boxodir qizi	
Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе.....	1043
Махмудова Севара Улугбековна	
Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati	1048
Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxona darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi	1063
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов	1070
Гулираъно Носирова Абдулазиз кизи	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati	1073
Bobaev Isroiljon Abdinabievich	



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA AHOLI FAROVONLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI

Bobaev Isroiljon Abdinabievich

Namangan davlat texnika universiteti

3-kurs tayanch doktoranti

E-mail: isroilbanker@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-4404-5457>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rnini va ahamiyati haqida ilmiy, nazariy va amaliy fikrlar keng qamrovli yoritilgan bo'lib, bunda bugungi kunda aholi farovonligi bo'yicha Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, aholi farovonligi, aholi demografiyasi, iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy farovonlik, hayotiy ne'matlar, BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, inson taraqqiyoti indeksi, Yangi O'zbekiston, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy islohotlar ilmiy fikrlar.

Abstract: This article comprehensively covers with scientific, theoretical and practical ideas about the role and importance of the welfare of the population in the development of entrepreneurial activity, and also covers large-scale economic and social reforms currently being implemented in New Uzbekistan in the area of welfare of the population.

Key words: entrepreneurship, welfare of the population, demography of the population, economic welfare, social welfare, unemployment benefits, UN (United Nations), GDP (gross domestic product), GNP (gross national product), HDI (human development index), New Uzbekistan, economic reforms, social reforms, scientific opinions.

Аннотация: В данной статье всесторонне освещены научные, теоретические и практические представления о роли и значении благосостояния населения в развитии предпринимательской деятельности, а также освещены широкомасштабные экономические и социальные реформы, реализуемые в настоящее время в Новом Узбекистане в сфере благосостояния населения.

Ключевые слова: предпринимательство, благосостояние населения, демография населения, экономическое благосостояние, социальное благосостояние, пособия по безработице, ООН (Организация Объединенных Наций), валовой внутренний продукт, валовой национальный продукт, индекс человеческого развития, Новый Узбекистан, экономические реформы, социальные реформы, научные мнения.

KIRISH

2025 yilda Yangi O'zbekistonning milliy iqtisodiyotini jadal sur'atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish bo'yicha axborot berdi. Ushbu axborotda quyidagi 2 ta muhim va dolzarb masalalar ko'rib chiqildi: 1-masala. Davlat byudjeti xarajatlarini 52 % foizi ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, aholini uy-joy bilan ta'minlash, madaniyat va sportni rivojlantirishga sarflanadi. 2-masala. O'zbekiston Respublikasidagi mavjud 3 600 000 nafar aholini ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "Mahalla loyihasi" doirasida Biznesni Rivojlantirish Banki va boshqa barcha tijorat banklari tomonidan 1 milliard \$ dollar miqdorida moliyaviy mablag' ajratiladi. Yurtboshimiz tomonidan taqdim etilayotgan ushbu iqtisodiy va ijtimoiy islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini ta'minlashdan iborat. Bunda aholini barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olishi nazarda tutilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI:

Ko'pchilik iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish bo'yicha xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar o'z fikrlarini bildirganlar: J.B.Sey va uning shogirdlari esa shu tariqa A.Smitning «ko'rinmas qo'l» bilan yo'naltirilayotgan «iqtisodiy inson»ning shaxsiy manfaati albatta jamoatchilikka to'g'ri keladi degan g'oyasiga o'z mulohazalarini qo'yib, jamiyatning barcha qatlamlarining iqtisodiy manfaatlari



uyg'unligi to'g'risidagi juda soddalashtirilgan nizomni chiqarishga harakat qildilar. D.Rikardo esa «aholi farovonligini oshirishning zaruriy sharti mehnat taqsimotidir» deydi. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, XXI asr boshlariga kelib, mehnat taqsimoti tufayli dunyoda 30 ming xil kasb mavjud bo'ldi. Demak, davrlar o'tib mehnat taqsimoti tarkibida kasblarning miqdor jihatidan ko'payishida tadbirkorona yondashuvlar muhim rol o'ynagan. Darhaqiqat, intellektual mulk va boshqa mulklarning tobora rivojlanishi natijasida kasblar turi ko'payib borgan. Bu esa aholini mehnatda bandligini ta'minlashga olib kelgan va aholi farovonligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Biroq, shunga qaramay A.Smit insonni baribir «...zarur ehtiyojlar, qulaylik va zavqdan foydalanish darajasiga qarab, boy yoki kambag'al» bo'lishini aytadi. Bunday yondashuvlar XX asr o'rtalaridayoq taniqli iqtisodchi Y.Shumpeterning «Iqtisodiy taraqqiyot nazariyasi» asarida ham qayd etilgan. Uning fikricha, «tadbirkorlik ishi – yangilik yaratish yo'li bilan ishlab chiqarishni isloh qilish va tubdan o'zgartirish, yanada umumiy ma'noda – yangi xom ashyo manbai yoki tayyor mahsulot bozorini ochish tufayli yangi tovarlarni yoki avvalgi tovarlarni ishlab chiqarish uchun yangi texnologik imkoniyatlardan foydalanish orqali, yangi usullar bo'yicha avvalgini qayta tashkil etish. Ko'pchilik iqtisodiy adabiyotlarda aholi farovonligiga turlicha tarif berishgan. Aholi farovonligi bu mamlakat aholisi, yakka individ, oila, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy sinflarning hayot uchun moddiy, ma'naviy, hayotiy, moliyaviy va ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlanganlik darajasi hisoblanadi deb ta'rif berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqoridagi nazariy qarashlardan kelib chiqqan holda Respublikamizda aholi farovonligini oshirish va ularning daromadini ko'paytirish maqsadida 2025 yil 1 fevraldan boshlab Respublikamizdagi barcha tijorat banklarida «Mahalla bankiri» lavozimi joriy etiladi. Asosiy maqsad 2025 yilda 5 200 000 nafar aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash vazifasi topshirildi, shundan 3 600 000 nafar aholini tijorat banklari zimmasiga ish bilan band etish, shundan 1 400 000 nafar aholini doimiy ish bilan band etish va qolgan 2 100 000 nafar aholini tadbirkorlikda band etish rejalashtirilgan. Yangi lavozim bo'lgan «Mahalla bankiri»ning asosiy maqsadi aholini daromadli mehnat bilan bandligini oshirish hisoblanadi. Mahalla bankiri loyihaning barcha zanjirida kredit olish, kreditni qaytarish, biznes ochish, mahsulot sotish jarayonlarida aholiga ko'maklashadi.

Aholi farovonligi ikki qismga ajratamiz, bular iqtisodiy farovonlik va ijtimoiy farovonlik. Iqtisodiy farovonlik bu aholi jon boshiga tovar, ish, xizmatlarni iste'moli miqdori hisoblanib, iqtisodiy farovonlik bozor qiymati bilan o'lchanadi. Ijtimoiy farovonlik esa aholini farovon hayot kechirishining umumiy shart-sharoiti, ya'ni uy-joy, zamonaviy infratuzilma, kommunal xizmat, bepul ta'lim olish, madaniyat, sog'liqni saqlash bo'yicha bepul tibbiy xizmatlaridan keng foydalanish hisoblanadi. Aholi farovonligi bilan bog'liq fikr va mulohazalarimni quyidagi chizma orqali yanada yaqqolroq ifodalash mumkin: (1.1-rasmga qarang)



1.1- rasm. Aholi farovonligining asosiy tarkibiy qismlari¹.

Ko'pgina ilmiy manbaalarda ta'kidlanishicha, «farovonlik – aholi hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va ehtiyojlarini qondirish tavsifi» deb ta'rif berilgan. Birlashgan millatlar tashkilotining tavsiyasiga ko'ra, aholi farovonligi bir necha elementlar tizimini namoyon etadi: sog'liq, shu jumladan, demografik sharoitlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, iste'mol va jamg'arish fondlari, mehnat sharoitlari, ish bilan bandlik, mehnatni oqilona tashkil etish, oliy yoki o'rta ma'lumotli bo'lish, shu jumladan, savodxonlik, aholini uy-joy, boshpana va muqim turar

1 Гулистон Давлат Университети и.ф.н. доц. PhD О.А.Юсуфалиевнинг PhD диссертация ишидан олинган



joy bilan ta'minlash, ijtimoiy ta'minot bo'lgan nafaqa, moddiy yordam bilan ta'minlash, inson erkinlari bo'lgan dam olish, turizm va ko'ngilochar tadbirlar bilan ta'minlash, aholi turmush darajasi (farovonlikni) ni xalqaro taqqoslash uchun Birlashgan millat tashkiloti o'z ichiga aholi jon boshiga milliy daromad, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, hayot davomiyligi, ta'lim oluvchi "inson taraqqiyoti indeksi" ko'rsatkichidan foydalaniladi. Aholi farovonlik, daromadlar va iste'mol bilan bir qatordan o'z ichiga mehnat va turmush shart-sharoitlarini, ish vaqti va bo'sh vaqtning hajmi va tarkibiy tuzilishini, madaniyat va ta'lim darajasi, sog'liqni saqlash, aholi demografiyasi (aholini tubdan ko'payishi) ni ekologik holatni oladi. Yangi O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sish asosida shakllangan milliy iqtisodiyoti sharoitida ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmat, harbiy xizmatga davlat byudjetidan katta miqdorda xarajatlar sarflanmoqda. Bundan ko'rinadiki, aholi farovonligi umumiy holda inson ehtiyojining qondirilish darajasi orqali ham ifodalash mumkin. Ya'ni aholi farovonligi kishilarning moddiy, ma'naviy va hayotiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hayotiy sohasi sifatida qaraladi. Farovonlik bu aholining zarur moddiy va ma'naviy ne'matlar (ma'lum ehtiyojlarni qondiruvchi buyumlar, xizmatlar, shart-sharoitlar) bilan ta'minlanligi hisoblanadi. Aholi farovonligi darajasi ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bir vaqtning o'zida unga ta'sir ko'rsatadi. Aholi farovonligining shakllanishiga quyidagi uch jihat ta'sir etadi: birinchisi bu ishlab chiqarish sohasida yaratiladigan oziq ovqat va kiyim-kechak mahsulotlar bo'lib, ular inson ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan. Ikkinchisi esa aholining alohida guruhi va qatlamining iste'mol ne'matlariga erishish imkoniyati. Uchinchisi esa aholi salomatligi uni qamrab olgan ijtimoiy va tabiiy muhitning holati. Fikrimizcha, hududlar kesimida tadbirkorlikni rivojlantirish, har bir fuqaroda biznes va moliyaviy bilimlarni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR:

Tahlillar va natijalar shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonning milliy iqtisodiyotida aholi farovonligi bevosita tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq. Aholi farovonligini tadbirkorlik faoliyatiga boglasak, ijtimoiy farovonlikni erishilgan nazariyalari darajalarini izohlovchi quyidagi sabablarni o'rganishimiz lozim: qulay geografik joylashuv, qulay iqlimiy sharoit, tabiiy resurslarning mavjudligi, aholi soni, inson kapitali, ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT), iqtisodiy rivojlanish darajasi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi ishtiroki, kredit foizi stavkasi, soliq stavkasi, kommunal to'lovlarning baland narxdaligi va hokazo.

Ushbu tadqiqot ishining maqsadi tadbirkorlik faoliyatini rivojlashtirish orqali aholi farovonligini oshirish bo'lganligini hisobga olgan holda ta'kidlash mumkinki, aholi farovonligi konsepsiyalarining asosi tadbirkorlik faoliyati va uni rivojlantirish shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liq. Aholi farovonligini tadbirkorlik faoliyatiga bog'laganimizda aholini ish bilan bandligi masalasi, ularni ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, ularni tadbirkorlik va biznes ko'nikmalarini shakllantirish, moliyaviy savodxonligini oshirish, kredit olish va olingan kreditni maqsadli ishlatish, foyda olish ko'nikmalarini shakllantirish kabi masalalarni hal etishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish ustuvor masala ekanligini his etishimiz lozim.

Yuqoridagi barcha fikr va mulohazalarga asoslangan hamda ularni umumlashtirgan holda, aholi farovonligining jamiyatdagi tadbirkorlik faoliyati rivojlantirganlik darajasi bilan bog'liqligi to'g'risidagi nazariy qarashlar bo'yicha shaxsiy mualliflik yondashuvini quyidagicha ifodalash mumkin: bozor iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotni jadal sur'atlarda barqaror iqtisodiy o'sish asosida aholi farovonligining asosiy omillaridan biri – bu tadbirkorlik faoliyati bo'lib, ushbu faoliyatni tashkil topishi va rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlari to'la ta'minlangan sharoitda jamiyatda farovonlik o'zining yuqori darajasiga erishadi. Tadbirkorlik faoliyatining juda keng va ko'p tarmoqli jarayon ekanligini hisobga olgan holda, mazkur tadqiqot ishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi farovonligi bilan o'zaro bog'liqligi masalalarini tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. (1.2-jadvalga qarang)

1.2-jadval. Aholi farovonligi asosiy sharoitlarining kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlarida namoyon bo'lishi².

Aholi farovonligini asosiy shartlarining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqligi	Mazkur bog'liqlikning kichik tadbirkorlik sub'ektlarida namoyon bo'lishi xususiyatlari
Ijtimoiy mehnat unumdorligining asosiy sharti mehnatning asosiy shart-sharoitlari (yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash) hamda faoliyat erkinligi hisoblanib, bular asosan erkin tadbirkorlik faoliyatida ta'minlanadi. Ijtimoiy mehnatning ehtiyojlar bilan mutanosibligiga bozor sharoitida erishilib, uning markazida tadbirkorlik faoliyati turadi.	Kichik tadbirkorlik sub'ektlari (YaTT) faoliyatida yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash hamda faoliyat erkinligini ta'minlash imkoniyatlarining kuchliligi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar alohida shaxslarning ehtiyojlarini nisbatan chuqurroq va aniqroq hisobga oladilar, o'z mehnat jarayonlarini alohida shaxslarning ehtiyoj talablariga nisbatan ko'proq moslashtiradilar

2 Гулистон Давлат Университети и.ф.н. доц. PhD О.А.Юсуфалиевнинг PhD диссертация ишидан олинган



Alohida shaxsning afzal ko'rishiga erishish bozor sharoitida amal qiluvchi tanlov erkinligini taqozo etib, bunga tadbirkorlik faoliyati orqali sharoit yaratiladi. Rasional tanlovni amalga oshirishga asosan bozor va tadbirkorlikning amal qilish sharoitida erishiladi.	Alohida shaxsning afzal ko'rishiga erishish yirik tadbirkorlik faoliyatiga (korporasiya, aksiyadorlik jamiyati) nisbatan kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida (yakka tartibdagi tadbirkorlik) yaxshiroq ta'minlanadi. Alohida shaxsning rasional tanloviga ko'proq kichik tadbirkorlikning amal qilish sharoitida erishiladi.
Resurslarning optimal joylashuvi (taqsimlanishi) bozor mexanizmlariga asoslanuvchi erkin tadbirkorlik faoliyati orqali ta'minlanadi.	Resurslarning optimal joylashuvi (taqsimlanishi), jumladan, ikkilamchi va chiqitsiz tarzda ishlatilishi kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati orqali nisbatan samarali ta'minlanadi.
Resurslardan foydalanish va daromadlarni taqsimlash jarayonlariga davlatning aralashuvi tadbirkorlik faoliyatining erkin harakati uchun ob'ektiv to'siqlar mavjud bo'lgan hollarda taqozo etiladi.	Resurslardan foydalanish va daromadlarni taqsimlash jarayonlarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun teng iqtisodiy sharoitlarni ta'minlashda davlatning aralashuviga ehtiyoj kuchliroq namoyon bo'ladi.
Fuqarolarning shaxsiy sog'lig'ini ta'minlash bilan bog'liq xizmatlarning ahamiyatli qismiga tadbirkorlik faoliyati orqali erishiladi. Davlat mas'uliyati asosidagi xatti-harakatlarning ahamiyatli qismi jamiyatda tadbirkorlik faoliyati uchun etarli shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq.	Fuqarolarning shaxsiy sog'lig'ini ta'minlash bilan bog'liq xizmatlarning manzilligi kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati orqali yaxshiroq ta'minlanadi. Davlat mas'uliyati asosidagi xatti-harakatlarga ehtiyoj kichik tadbirkorlik sub'ektlari (yakka tartibdagi tadbirkorlar) faoliyatida kuchliroq namoyon bo'ladi.
"Xarajatlar – mahsulotlar ishlab chiqarish" nisbatini maksimallashtirishga asosan bozor va tadbirkorlikning amal qilish sharoitida erishiladi.	"Xarajatlar – mahsulotlar ishlab chiqarish" nisbatini maksimallashtirishga kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida yaqqolroq erishiladi.
Fuqarolarning farovonligi uchun davlatning mas'ulligi jamiyatda tadbirkorlik faoliyati uchun etarli shart-sharoitlarni yaratish bilan bog'liq.	Fuqarolarning farovonligi uchun davlatning mas'ulligi jamiyatda ayniqsa kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun etarli shart-sharoitlarni yaratish bilan ko'proq bog'liq.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida yangi texnika va texnologiyalarni ko'llash imkoniyatlari nisbatan kuchli hisoblanadi. Ya.Xabievning ta'kidlashicha, "Kichik biznes qisqa muddatlar ichida muayyan bozorlarda talab qilinuvchi yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlashga qodir. Kichik tadbirkorlikning bozordagi o'zgaruvchan ehtiyojlarga operativ tarzda javob qaytara olish imkonini beruvchi ishlab chiqarish, texnologik va ma'muriy moslashuvchanligi ham uning muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim hisoblanadi. Kichik tadbirkorlikning ichki tabiatiga xos bo'lgan barcha kamchiliklarni e'tirof etgan holda ta'kidlash lozimki, shunga qaramay milliy kichik biznes o'zining amaliy faoliyatida innovasion mahsulotlarni qo'llash hamda yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga o'ta sezgir hisoblanadi". Amerika Qo'shma Shtatlari Milliy ilmiy fondining ma'lumotlariga ko'ra, ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan 1 dollar hisobiga kichik biznes sub'ektlarida (Yakka tartibdagi tadbirkorlar) o'rta biznes sub'ektlariga (Mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, xususiy korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari va oilaviy korxonalar) qaraganda 4 baravar, yirik biznes sub'ektlarga (korporasiyalar) qaraganda 24 marta ko'proq yangi ishlanmalar olingan. Amerika qo'shma shtatlari statistikasi bo'yicha kichik biznes sub'ektlarning bitta xodimiga yirik biznes sub'ekti xodimlariga qaraganda 2.5 baravar innovasiya (yangilik yaratish) to'g'ri keladi.

Shuningdek kichik tadbirkorlik sub'ektlari (Yakka tartibdagi tadbirkorlar) faoliyat erkinligini ta'minlash imkoniyatlari ham muhim o'rin tutadi. Tadbirkorning iqtisodiy erkinligi mulkka egalik qilish, xo'jalik faoliyatini yuritish, tavakkalchilik evaziga foyda olish maqsadida yangi innovasion texnologiyalar asosida mahsulot, ish va xizmatlar yaratish, bozorni o'rganib, sog'lom raqobat muhitida tovar ish va xizmatlarni sotish shartlari, tovar yoki xizmatlar narxi, aholi to'lov qobiliyatidan kelib chiqqan holda tovar yoki xizmatlarga narx belgilash talab etiladi. Bugungi kunda ko'pchilik tadbirkorlar mahalliy xom ashyodan foydalangan holda sifatli va hamyonbop mahsulot ishlab chiqarib, bozorga to'g'ridan to'g'ri kirib kelib, bozorni egallashmoqda. Bundan tashqari tadbirkorlar o'z mahsulotlarini xorijiy davlatlarga eksportni amalga oshirib, foyda va daromad ulushlarini ko'paytirishmoqda. Bunda hukumat tomonidan chiqayotgan soliq stavkasi imtiyozlari bo'yicha chiqarilgan farmonlar va qarorlarni ijrosi ta'minlanmoqda. Aytish joizki, rezilient eksportyor tadbirkorlar soliq to'lovlaridan batamom ozod etilganligi bejiz emas, chunki Prezidentimiz tomonlaridan olib borilayotgan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga soliq yukini kamaytirish, kredit stavkalarini pasaytirishga doir chora tadbirlar asosida Yo'l xaritasi ishlab chiqilgan. Bunda O'zbekiston Respublikasi hududidagi mavjud viloyatlardagi aholining real daromadlarini oshirishga qaratilgan mavjud asosiy iqtisodiy drayverlarni qo'llab-quvvatlagan holda chorvachilik, dehqonchilik, tomorqadan foydalanish, chevarchilik, kasanachilik, issiqxona tashkil etish, xorijiy tillarni o'rgatuvchi o'quv markazlarini tashkil etish, avtomobillarni yuvishga mo'ljallangan moy sam uskunalarini o'rnatish, elektromobil



avtomashinalarini elektr zaryadlashga mo'ljallangan shahobchachalarni foydalanishga topshirish, pishirish, umumiy ovqatlanish, savdo, aloqa faoliyati, muddatli to'lov tovarlarini sotuvchi do'konlar tarmog'ini ishga tushirish kabi faoliyatlar o'z aksini topgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha hamda tadqiqot maqsadi va vazifalarining bajarilganligini bildiruvchi quyidagi xulosa, ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tadbirkorlik faoliyati – bu alohida faoliyat turi bo'lib, yangilikni joriy etish, tavakkalchilikni qo'llash, mulkni o'zlashtirish, qonuniy faoliyat ko'rsatish kabi iqtisodiy kategoriyalarni qamragan holda aholi farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar yig'indisidan iborat faollikni anglatadi. Tadbirkorlik faoliyati turli shakllarda amalga oshirilib, uning turli yo'nalishlariga tegishli bo'lgan tashkiliy-huquqiy shakllari asosidagi faoliyat turini biznes faoliyatidan farqlash zarur.

2. "Tadbirkorlik faoliyati" va "aholi farovonligini oshirish" kabi iqtisodiy kategoriyalari aholi daromadlari, mamlakatdagi ta'lim sifati, tibbiyot, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ekologik vaziyat va siyosiy barqarorlik omillarning ta'sirida tobora kengaytirilgan holda tushuntirib boriladi.

3. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish asosida mamlakatdagi ishsizlikni oldini olish va bunda ish bilan bandlikni ta'minlashga erishish imkoniyatlarini kengayishini inobatga olib, tadbirkorlikda diversifikatsiya masalalariga alohida e'tibor qaratish zarurligi isbotlandi.

4. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning ko'lamini va ta'sir doirasini doim o'rganib borish talab etiladi. Ichki omillar mikrofirmalar yoki firma faoliyatida boshqaruvchining ta'sirida o'z echimini topishi tashqi omillarni ta'siridan ko'ra soddaroqdir. Ammo tashqi omillar tadbirkorlik sub'ektlari uchun bir qator jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Buning uchun tadbirkor o'z faoliyati davomida tavakkalchiliklarga ham tayyor turishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. O'zbekistonda tadbirkorlikni huquqiy tartibga solish masalalarini engillashtirish maqsadida qonun hujjatlarida aholi farovonligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni yanada mustahkamlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь. - https://www.uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkatmirziyoevning-oliy-mazhlisga-murozhaatnomasi_198650
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 мартдаги ПҚ-4231-сон "Худудларда аҳолини тadbirkorlikка кенг жалб қилиш ва оилавий тadbirkorlikни ривожлантиришга доир қўшимча чора-таdbirlар тўғрисида"ги қарори. - <https://lex.uz>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 июндаги ПҚ- 4742-сон "Тadbirkorlik фаолияти ва ўзини ўзи банд қилишни давлат томонидан тартибга солишни соддалаштириш чора-таdbirlари тўғрисида"ги қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. 2022 йил 28 январь, ПФ-60-сон. – www.lex.uz
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Коронавирус пандемияси ва глобал инқироз ҳолатларининг иқтисодиёт тармоқларига салбий таъсирини юмшатиш бўйича биринчи навбатдаги чора-таdbirlар тўғрисида. 2020 йил 19 март, ПФ-5969-сон. - <https://www.lex.uz/>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тadbirkorlik субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-таdbirlар тўғрисида. 2020 йил 3 апрель, ПФ-5978-сон. - <https://www.lex.uz/>
7. Меньщикова В.И., Саяпин А.В., Черкасов В.А. Оценка вклада малого предпринимательства в экономику региона (на материалах Тамбовской области) // Социально-экономические явления и процессы. - Т.11, №3, 2016. - С.83-88. - <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-vklada-malogopredprinimatelstva-v-ekonomiku-regiona-na-materialah-tambovskoy-oblasti>
8. Николаев И. Почему растет ВВП и не растут доходы населения. - <https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2017/07/06/711128-pochemu-rastet-vvp>
9. Общественный труд. - Большой Энциклопедический словарь. 2000. - <https://dic.academic.ru>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>